



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI TIJORAT BANKLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AQSH TAJRIBASI

PhD, dots. **Nematulloyev Suxrob**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0001-7100-5533
suxrobnematullayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada AQShdagi Small Business Administration (SBA) tajribasi asosida kichik biznes subyektlarini tijorat banklari orqali moliyalashtirish mexanizmlarining samarador jihatlari o'rganilgan. AQShdagi kredit kafolatlari, foiz stavkalarini tartibga solish, maslahat markazlari va raqamli infratuzilmalar asosida O'zbekiston sharoitlariga mos strategik takliflar ishlab chiqilgan. Jumladan, kredit kafolatlarini kuchaytirish, "raqamli kafolat portali"ni joriy etish, maslahat markazlari tashkil etish, foiz stavkalarini tartibga solish va monitoring tizimini takomillashtirishga oid takliflar asoslab berilgan. Takliflar O'zbekistonda kichik biznes kreditlash mexanizmlarining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, moliyalashtirish, tijorat banklari, SBA, kredit kafolati, maslahat xizmati, O'zbekiston, AQSh, moliyaviy inklyuziya.

ОПЫТ США В ФИНАНСИРОВАНИИ МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КОММЕРЧЕСКИЕ БАНКИ

PhD, доц. **Нематуллоев Сухроб**
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье проанализирован опыт Администрации малого бизнеса США (SBA) в финансировании субъектов малого предпринимательства через коммерческие банки. На основе механизмов предоставления кредитных гарантий, регулирования процентных ставок, консультационных центров и цифровой инфраструктуры разработаны стратегические предложения, адаптированные к условиям Узбекистана. В частности, обоснована необходимость усиления гарантийной системы, внедрения цифрового портала гарантирования, создания консультационных центров и совершенствования мониторинга. Предложенные меры направлены на повышение эффективности механизмов финансирования малого бизнеса в Узбекистане.

Ключевые слова: малый бизнес, финансирование, коммерческие банки, SBA, кредитные гарантии, консультации, Узбекистан, США, финансовая инклюзия.

US EXPERIENCE IN FINANCING SMALL BUSINESSES THROUGH COMMERCIAL BANKS

PhD, assoc. prof. **Nematulloyev Sukhrob**
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the experience of the U.S. Small Business Administration (SBA) in financing small business entities through commercial banks. Based on SBA practices such as credit guarantees, interest rate regulation, business development centers, and digital infrastructure, strategic recommendations tailored to Uzbekistan's context are proposed. These include strengthening credit guarantee systems, launching a digital guarantee portal, establishing advisory centers, regulating interest rates, and improving monitoring systems. The proposed measures aim to enhance the efficiency of small business financing mechanisms in Uzbekistan.*

Keywords: *small business, financing, commercial banks, SBA, credit guarantee, advisory service, Uzbekistan, USA, financial inclusion.*

Kirish.

Kichik va o'rta biznes iqtisodiy o'sish hamda bandlikning muhim drayveri hisoblanadi. Ushbu subyektlarning moliyaviy resurslarga ega bo'lishi ko'p jihatdan tijorat banklari orqali kredit olish imkoniyatlariga bog'liq. Ko'plab davlatlar kichik biznesni moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus siyosat va institutlar shakllantirgan. Ushbu maqolada AQSh misolida kichik biznesni tijorat banklari orqali moliyalashtirish siyosati va amaliyoti tahlil qilinadi. Har bir mamlakatda hukumat va banklar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari, jumladan, kredit kafolatlari, foiz stavkalarini subsidiyalash, maxsus kredit liniyalari va boshqa instrumentlar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, har bir davlat tajribasining afzallik va kamchiliklari tahlil qilinib, kichik biznesni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Berger va Black (2019) kichik biznes kreditlarining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini tahlil qilib, banklarning rolini "moliyaviy accelerator" sifatida tavsiflaydi. Ular davlat tomonidan kafolatlangan kreditlarning kredit tavakkalini kamaytirishini va bu orqali banklar kichik biznesga faolroq xizmat ko'rsatishini isbotlaydi.

Beck, Demirgüç-Kunt va Singer (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda 130 ta davlatdagi kichik biznesni moliyalashtirish infratuzilmasi o'rganilgan. Tadqiqotchilar kichik biznes uchun moliyaviy xizmatlar mavjudligini uch omilga bog'laydi: (1) bank tizimi rivoji, (2) huquqiy muhit va kafolatlar tizimi, (3) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar.

Mallett, Wapshott va Vorley (2020) Britaniya misolida moliyalashtirishga oid institutsional yondashuvni tahlil qilib, kichik biznes kreditlarining faqat moliyaviy ko'mak emas, balki strategik maslahat bilan qo'llab-quvvatlanganda samaraliroq bo'lishini ta'kidlaydi.

Torre, Pería va Schmukler (2021) esa banklarning kichik biznesga kredit ajratishda yuzaga keladigan axborot assimetriyasi va monitoring xarajatlari bo'yicha qiyinchiliklarini yoritadi. Ularning fikricha, davlat tomonidan taklif qilinadigan kredit kafolatlari bank tavakkalini kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Zavertiaeva va Kotova (2022) Rossiya misolida olib borgan tadqiqotlarida, milliy darajadagi kredit kafolat tizimi (uch pog'onali model) kichik biznes kreditlash hajmiga bevosita ijobiy ta'sir qilganini aniqlaydi. Ular davlat kafolatlarining qamrovini kengaytirish kredit faolligini oshiradi, degan xulosaga keladi.

Mahalliy olimlardan Umarova, (2025) o'z maqolasida O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlash tizimining amaldagi holati tahlil qilinadi. Muallif xalqaro tajriba va

empirik izlanishlar asosida kichik biznesni moliyalashtirishda uchraydigan asosiy cheklovlar, kredit axborot infratuzilmasini rivojlantirish, garovsiz kreditlash mexanizmlari, raqamli moliyalashtirish vositalari va davlat kafolatlarini kuchaytirishga doir strategik takliflarni ilgari suradi.

Xursanaliyev, (2024) Muallif kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda xorijiy tajribalarni o'rganib, O'zbekistonda bu sohadagi tartibga solish jarayonini tahlil qiladi. Maqolada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni tadbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznesni tijorat banklari orqali moliyalashtirishda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular orasida garov ta'minoti yetishmasligi, yuqori foiz stavkalari, ayollar tadbirkorligining moliyalashtirilishidagi gender tengsizliklar va mikromoliya tashkilotlarining roli kabi masalalar ajralib turadi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali ushbu muammolarni hal etish imkoniyatlari mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishda analitik taqqoslash, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslama tahlil ma'lumotlarni guruhlash, ularni bir-biri bilan solishtirish yo'li bilan statistik qayta ishlash usuli, miqdor va sifat ko'rsatkichlar hisoblash kabi uslublardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

AQShda kichik biznes asosan xususiy tijorat banklari tomonidan moliyalashtiriladi, biroq hukumat kichik biznesning kreditga erishishini osonlashtirish uchun muhim qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalarni yaratgan. Bunday asosiy institut – AQSh Kichik biznes ma'muriyati (Small Business Administration, SBA) bo'lib, u tijorat banklariga qisman kredit kafolati beradi. Ya'ni, banklar tomonidan ajratiladigan kichik biznes kreditlarining muayyan foizi davlat (SBA) tomonidan kafolatlanadi, bu esa banklar uchun kredit xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Odatda, SBA 7(a) dasturi doirasida kredit summasining 75–85% qismi kafolatlanadi (kredit miqdoriga bog'liq holda), bu esa banklarni yetarli garovi yoki kredit tarixi bo'lmagan kichik tadbirkorlarga ham qarz berishga rag'batlantiradi. Natijada, SBA banklar bilan hamkorlikda kichik biznesning kapitalga erishishini yengillashtiradi – SBA bevosita kredit bermaydi, balki banklar orqali berilgan kreditlarga kafolat va metodik yordam ko'rsatadi (Small Business Administration).

AQShning kichik biznesni moliyalashtirish siyosati institutsional jihatdan to'laonli shakllangan. SBAning 7(a) eng yirik kredit dasturi bo'lib, ishlayotgan biznesni kengaytirishdan tortib startapgacha bo'lgan turli maqsadlar uchun kreditlar ajratiladi. Masalan, 2023-moliya yilida SBA 7(a) dasturi doirasida 57 mingdan ortiq kreditga kafolat berilib, ushbu kreditlarning umumiy hajmi \$27,5 mlrd ni tashkil etdi. Shuningdek, 504-dastur orqali SBA uzoq muddatli asos vositalar (uskuna, bino-inshoot) xaridi uchun past foizli, uzoq muddatli moliyalashni ta'minlaydi – bu dasturda kreditlar hamkor Certified Development Company (CDC)lar orqali berilib, qisman SBA kafolatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, SBA mikrokredit dasturi orqali maxsus o'rta bo'g'indagi institutsional kreditorlar (mikroqarz tashkilotlari) orqali \$50 minggacha bo'lgan kichik kreditlar ajratilishini moliyalashtiradi.

Hukumat va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmi AQShda asosan kredit kafolatlari va maxsus dasturlar orqali yo'lga qo'yilgan. Banklar odatdagi tartibda qarz oluvchilarni baholaydi va kredit ajratadi, biroq ushbu kredit SBA tomonidan kafolatlangani tufayli banklar uchun yo'qotish xavfi kamayadi. Buning evaziga SBA kredit shartlarini belgilaydi (masalan, foiz stavkasi uchun chegara o'rnatadi) va kreditning qaytarilishi monitoringida qatnashadi. Foiz stavkalarini subsidiya qilish odatda qo'llanilmaydi – kreditlar bozor stavkalarida (yoki SBA belgilagan chegara doirasida) ajratiladi, lekin kafolat tufayli banklar bu stavkalarni pastroq darajada ushlab turishi mumkin. Shunga qaramay, ayrim shtatlar yoki

alohida federal dasturlar (masalan, State Small Business Credit Initiative, SSBCI) doirasida tijorat banklari beradigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qisman qoplash yoki kredit xavfini kamaytirish choralari ham mavjud. Lekin umumiy oqimda SBAning kafolat sxemasi asosiy o'rinda turadi va bozor mexanizmlarini saqlagan holda davlat ishtirokini ta'minlaydi.

SBA (Small Business Administration – Kichik biznes ma'muriyati) orqali kreditlash statistikasi AQShda kichik bizneslarni tijorat banklari orqali moliyalashtirishda **SBA asosiy moliyaviy vositachi sifatida** qatnashadi. SBA bevosita kredit bermaydi, balki **tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarga kafolat** beradi.

1-jadval

**SBA (Small Business Administration – Kichik biznes ma'muriyati)ning
7(a) krediti – asosiy dasturi tahlili**

Moliyaviy yil	Kreditlar soni (dona)	Umumiy hajm (mlrd. dollar \$)	O'rtacha kredit miqdori (dollar \$)
2020	42,302	22,55	533,000
2021	51,856	36,51	704,000
2022	47,678	25,69	539,000
2023	57,312	27,50	479,900

7(a) dasturi AQShdagi eng yirik kichik biznes kredit dasturi bo'lib, umumiy hajmning 70–80% ini tashkil etadi. Kreditlar ko'p hollarda **80–85% gacha SBA tomonidan kafolatlanadi**, bu esa tijorat banklari uchun tavakkalni kamaytiradi.

2-jadval

504 dasturi (asbob-uskunalar, bino-inshootlar uchun) tahlili

Yil	Kreditlar soni	Umumiy hajm (mlrd.dollar \$)	Maksimal kredit (dollar\$)
2021	9,868	9,22	5 million
2022	9,254	8,64	5,5 million
2023	10,217	9,98	5,5 million

504 dasturi ko'proq uzoq muddatli, asosiy vositalarga mo'ljallangan moliyalashtirish bo'lib, **foiz stavkalari past**, muddati 10–25 yilgacha bo'ladi.

AQSh tajribasining afzalliklari va kamchiliklari: *Afzalliklar:* Kichik biznesni moliyalashtirish tizimi asosan bozor tamoyillariga tayangan, ko'plab xususiy banklar o'rtasida raqobat mavjud. Davlat (SBA) kafolatlari tufayli yuqori tavakkalli deb qaraladigan kichik tadbirkorlar ham kredit olishi mumkin. Kredit turlari xilma-xil va moslashuvchan (aylanma mablag' uchun qisqa muddatli kreditdan tortib, investitsiya loyihalari uchun 25 yilgacha kreditlar mavjud). 2022-yilda SBA dasturlari orqali rekord darajada – jami \$43 mlrd qiymatdagi 62 mingdan ziyod kredit va investitsiyalar kichik biznesga yetkazildi, bu katta ko'lamdagi qo'llab-quvvatlashdir. SBA dasturlari ayniqsa ayollar, ozchilik guruhlar va startaplar kabi an'anaviy moliyalashtirishda qiynaluvchi segmentlarga alohida e'tibor qaratadi, bu esa inklyuzivlikni oshiradi.

Kamchiliklar: Kredit olish jarayonlari ba'zan murakkab byurokratik talablarga ega (SBA kafolati uchun hujjatlar to'ldirish va tasdiq jarayoni uzoqroq bo'lishi mumkin). Kichik kreditlar (masalan, \$50 mingdan kichik) bo'yicha ham banklar ko'pincha ehtiyotkorlik bilan yondashadi va har doim ham erkin resurslarini kichik biznesga yo'naltirishga qiziqmaydi – garchi davlat

kafolati bo'lsa ham, bank uchun daromadlilik past bo'lishi mumkin. Shuningdek, SBA kafolati bo'lmagan sohalarida yoki kreditlash me'zonlariga to'g'ri kelmaydigan bizneslar (masalan, juda yangi startaplar yoki noan'anaviy biznes modellari) uchun bank kreditiga erishish hamon qiyin bo'lib qolmoqda. Foiz stavkalari bozor darajasida bo'lgani uchun, kreditlar qiymati kichik biznes uchun qimmat tushishi mumkin – davlat faqat xavfni bo'lishadi, lekin foizni pasaytirib bermaydi (istisno tariqasida, ayrim dasturlarda subsidiyalar bo'lishi mumkin, biroq keng tarqalgan emas).

Xulosa va takliflar.

AQSh tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligi kredit resurslari hajmiga emas, balki kredit muhitining sifati, kafolat va maslahat infratuzilmasi, tavakkalni boshqarish mexanizmlariga bog'liq. O'zbekistonda mavjud tizim davlat tomonidan moliyaviy resurslarni ajratish orqali faoliyat yuritmoqda, biroq bu usul uzoq muddatli bozor mexanizmlariga asoslanmagan.

Shu bois, SBA modelining asosiy elementlari – kafolatlar, maslahatchilik, monitoring va raqamli texnologiyalar – O'zbekistonda amalda sinovdan o'tkazilishi va milliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etilishi lozim. Bu kichik biznes subyektlarining tijorat banklari bilan barqaror moliyaviy munosabatlar o'rnatishiga, moliyaviy inklyuziya kengayishiga va iqtisodiy o'sish drayverlarining faollashuviga zamin yaratadi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/Reference:

Beck, T., Demirgüç-Kunt, A. and Singer, D., (2020). *Financial institutions and small and medium enterprises: Financial infrastructure and policy tools*. *The World Bank Research Observer*, 35(1), pp.49–76. <https://doi.org/10.1093/wbro/lkz003>.

Berger, A.N. and Udell, L.K., (2019). *Small business lending: credit channel, loan guarantees and economic growth*. *Journal of Financial Intermediation*, 40, pp.100-115. <https://doi.org/10.1016/j.jfi.2018.07.002>.

De la Torre, A., Peria, M.S.M. and Schmukler, S.L. (2021). *Bank involvement with SMEs: Beyond relationship lending*. *Journal of Banking & Finance*, 123, 106044. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2020.106044>.

Mallett, O., Wapshott, R. and Vorley, T., (2020). *How do small business owners make financial decisions? Towards a demand-side perspective on finance*. *Small Business Economics*, 55(3), pp.639–656. <https://doi.org/10.1007/s11187-019-00141-8>.

SBA (Small Business Administration) tomonidan e'lon qilingan 2023-yilgi Yillik Hisobotdan <https://www.sba.gov>.

Umarova, I.S., (2025). *O'zbekistonda kichik biznesni kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari*. *Sci-P.uz*, II-son, 348-bet. <https://www.researchgate.net/publication/390819799>.

Xursanaliyev, B., (2024). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida xorijiy tajriba*. *Qo'qon Universiteti Xabarnomasi*, 10(10), 21-24-bet. DOI: 10.54613/ku.v10i10.899 <https://www.researchgate.net/publication/380832953>.

Zavertiaeva, M. and Kotova, E. (2022). *Credit guarantee schemes and SME finance in Russia: Evidence from a regional policy experiment*. *Journal of Small Business Management*, 60(4), pp.812–832. <https://doi.org/10.1080/00472778.2021.1938094>.